

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSINI O'RGANISHGA MO'ljALLANGAN DAVR
MANBALARI TAHLILI**Sanjar Axmedov***O'qituvchi, dotsent**Perfect Universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar:

Temuriylar renessansi, Amir
Temur, Ulug'bek, Shoxruh,
madaniyat, ilm-fan, san'at,
yozma manbalar

Annotatsiya: Mamlakatimiz tarixida Ikkinchi

Renessans davrini yaratgan ajdodlarimiz temuriylar hisoblanadi. Yangi uyg'onish davrini boshlab berar ekanmiz, o'tmishda mavjud bo'lgan uyg'onish davrini har tomonlama chuqur tadqiq etish pirovard maqsadimiz hisoblanadi. Shuningdek, milliy davlatchiligimiz tarixida har bir sohada eng yuqori natijalarga erishilgan ushbu davr va hukmdorlarning madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi faoliyatini turli ko'rinishlarda tadqiq etish davom etadi.

Tarixdan ma'lumki, Amir Temur va temuriylar ulkan saltanat barpo qilishgan. Ular qo'l ostidagi davlatlarda faqat bosqinchilik, buzg'unchilik ishlarini olib borganmi yoki madaniyat rivojiga o'zlarining hissalarini qo'shishganmi? Bu masalalarga oydinlik kiritish biz tarixchi manbashunoslarning oldida turgan vazifadir.

ANALYSIS OF THE SOURCES DEDICATED TO STUDYING THE TIMURID PERIOD
OF THE RENAISSANCE**Sanjar Akhmedov***Teacher, Associate Professor**Perfect University**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Timurid

Renaissance, Amir Temur,
Ulugh Beg, Shahrukh,

Abstract: In the history of our country, our ancestors

who created the Second Renaissance era are considered to be
the Timurids. We embark on the study of the new era,

civilization, science, art, written sources.

starting from the period of awakening, with the goal of conducting a comprehensive and in-depth analysis of the era of awakening that existed in the past. Additionally, ongoing research examines the activities of this period and its rulers in the civilizational and educational direction, where they achieved the highest results in various fields during this era in the history of our national sovereignty.

Historically, it is known that Amir Temur and the Timurids established a vast empire. Did they only engage in conquering and suppressing activities in the states under their control, or did they contribute to the cultural development and enrichment, participating in the Renaissance of civilization? These questions are the tasks that stand before historians.

АНАЛИЗ ИСТОЧНИКОВ, ПОСВЯЩЕННЫХ ИЗУЧЕНИЮ ЭПОХЕ РЕНЕССАНСА ТИМУРИДОВ

Санжар Ахмедов
Преподаватель, доцент
Университет Perfect
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:
Тимуридский Ренессанс,
Амир Тимур, Улугбек,
Шахрух, культура, наука,
искусство, письменные
источники.

Аннотация: Наши предки, создавшие эпоху Второго Ренессанса в истории нашего государства, считаются Тимуридами. Наша цель - подробно исследовать период нового расцвета, начиная с великих событий в прошлом, и провести всесторонний анализ этого периода. Кроме того, продолжается исследование деятельности этой эпохи и правителей в области культуры и образования, где они достигли выдающихся результатов в истории нашего национального государства.

Как известно из истории, Амир Тимур и тимуриды установили великое государство. Интересно, были ли они взяты преимущественно за военные завоевания в подчиненных им странах, или они также внесли свой вклад в культурное развитие и обогащение? Эти вопросы стоят перед исследователями исторических источников.

KIRISH

Amir Temur va temuriylar ulkan bunyodkorlik ishlarini, ilm-fanga homiylik ishlarini o'zlarinig asosiy sevimli ishlari qatorida ko'rishgan. Ularning ishlari hozirda bizning faxrimiz hisoblanadi. Istiqlool yillarida Amir Temur va temuriylar davriga oid manbalarni o'rganishga katta e'tibor berilayapti. Bir qator manbalar arab va fors tillaridan tarjima qilindi.

Hozirda mamlakatimizning tub siyosiy-ijtimoiy pozitsiyalaridan biri Uchinchi Renessans poydevorini qurishga qaratilgan. Bu kabi balandparvoz marralar qo'yar ekanmiz, albatta Vatanimiz tarixida sodir bo'lgan oldingi renessanslarni o'rganishimiz shart. Shu sabadan ham Temuriylar davri renessansini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Buni albatta davr manbalarini birlamchi asos sifatida o'rganish talab etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Rus olimlaridan Amir Temur va temuriylar davri tarixini kengroq tahlil qilgan va ko'plab yo'nalishlar bo'yicha o'rgangan olim V.Bartold hisoblanadi. Olim asosan Amir Temur va Ulug'bek Mirzo faoliyatiga katta e'tibor qaratib, ma'naviy-ma'rifiy hayot haqida ham qimmatli ma'lumotlarni ochib berdi. U o'z izlanishlarida temuriylarning bunyodkorlik va ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasini yuksak baholadi. Temuriylar davri madaniy hayoti haqida A.Yakubovskiy katta ishlarni amalga oshirdi. U ko'plab manbalarni tadqiq etgan holda, temuriylar qoldirgan bunyodkorlik ishlarini yoritib berdi.

Amir Temur shaxsiga bo'lgan katta qiziqishni keltirib chiqargan I.Mo'minovning tadqiqotlari ham ahamiyatli hisoblanadi. U o'zining tadqiqotida Amir Temurning yaratuvchanlik faoliyatiga katta urg'u beradi va bu ko'plab muhokamalarga sabab bo'ladi. Temuriylar davri san'ati, hunarmandchiligi, bunyodkorligi va boshqa yo'nalishlarda juda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirildi. Xususan, B.V.Krusman Samarqand obidalarini tadqiq etib, ularda qo'llanilgan naqshlar, uslublarga alohida e'tibor qaratgan. Mazkur o'rganishlardagi xulosalardan Amir Temurning "Bizning kimligimizni bilmoqchi bo'lsang, biz qurdirgan imoratlarga boq" degan mashhur shiori yodga tushadi. Zero, mazkur falsafa imoratlar qurilishida asos qilib olinganligi oydinlashadi. Rus sharqshunosi A.A.Semyonov Temur va temuriylar qabr toshlari bitiklarini o'rganish orqali ularning shajarasini aniqlashga harakat qilgan.

Me'morchilik va bunyodkorlik yo'nalishida G.A.Pugachenkova va L.I.Rempel yaxshi izlanishlar olib borgan. V.V.Veymarn ham o'z risolasida temuriylar davri san'atiga katta e'tibor qaratgan. Temur davri obidalari bezaklarini L.Yu.Mankovskaya ham tadqiq etgan.

Sovet davri o'zbek olimlaridan T.N.Qori-Niyoziy Ulug'bek Mirzoning ilmiy merosini o'rganib, uning davrida amalga oshirilgan madaniy-ma'rifiy jarayonlarni yoritib bergan.

Mavzu tarixshunosligini xolis o'rganish borasida tarixshunos olimlar B.V.Lunin, D.A.Alimova, E.V.Rtveladze kabi olimlarning tarix fani metodologiyasi va tarixshunoslik muammolari, uning hozirgi zamonda tutgan o'rni masalalariga bag'ishlangan ishlaridan foydalanish amaliy yordam beradi.

E.V.Rtveladze va D.A.Alimova "Исследовательские подходы к истории эпохи Темура и Темуридов (Принципы работы над коллективной монографией)" nomli maqolasida mavzuning tarixshunosligi bo'yicha hali o'rganilishi kerak bo'lgan ishlar ko'lami ko'pligini ta'kidlab, keyingi yillarda yozilgan tadqiqotlarning ham tahlilini amalga oshirish zarurligini qayd etgan. 1990-yillar boshlarida B.V.Lunin, A.Ahmedov, B.Ahmedov kabi olimlar Amir Temur tarixini qayta, xolis o'rganish masalasini ko'tarib chiqib, uning shaxsiga haqqoniy yuqori bahoni berdilar. 1996-yili chop etilgan yana bir yirik asar "Temur va Ulug'bek davri tarixi" dir. Unda Amir Temur va temuriylar davrini o'rganishga bag'ishlangan manbalar, bu davrni o'rganishga xizmat qiluvchi adabiyotlar, Temur obrazining folklorda aks etishi, Temur va Ulug'bekning tarjimai holi, Temur va Ulug'bek davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayot masalalari atroflicha yoritilgan.

Temuriylar davri tarixshunosligi rivojiga katta hissa qo'shgan olimlar G.A.Pugachenkova, R.G.Mukminova, B.V.Lunin, E.V.Rtveladze, A.O'rinboyev, D.Yusupova, O.Bo'riyev kabi temurshunos olimlarning mustaqillikkacha bo'lgan davrda ham temurshunoslikning rivojiga tamal toshini qo'yganliklarini yana bir bor ta'kidlash zarur.

O‘rinboyev manbalardan qilingan tarjimalarida temuriylar hayoti va faoliyati to‘g‘risida ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma‘lum bo‘lmagan ma‘lumotlarni izohlar bilan keltiradi. Olimning tadqiqotlarida asar va muarrihlar, yozma manbalardagi ma‘lumotlar, Amir Temurning bunyodkorlik faoliyati, Markaziy Osiyo me‘morchilik yodgorliklarining qurilishi masalalari yoritilgan. T.Fayziyev Temuriylar shajarasini yozma manbalarga tayanib o‘rgangan, 300 dan ortiq malika va 192 ta shahzodalar taqdirini aniqlagan olimdir. U o‘z asarida mamlakatda hukmronlik qilmagan, ushbu sulolaga mansub shahzodalarni ham ro‘yxatga kiritgan.

Sharqshunos olimlar U.Uvatov, D.Yusupovalarning qator ilmiy tadqiqotlari temurshunoslik rivojiga katta hissa bo‘lib qo‘shildi.

Temuriylarning diplomatik munosabatlarini M.Xolbekov, A.Saidov (L.Keren bilan hammualliflikda), B.Mannonov, S.G‘ulomov, U.Uvatov, A.Ziyo, N.Karimova, G‘.Karimov va A.Habibullayev, M.Abduraimov, I.Iskandarov kabi olimlar maxsus o‘rganganlar.

Temur va temuriylar tarixiga oid ilmiy izlanishlar dunyoning 50ga yaqin mamlakatlarida nashr qilingan va uning ko‘lami yil sayin ortib bormoqda. 2000-yilgacha bo‘lgan davrning o‘zida mazkur mavzu bo‘yicha dunyo bibliografiyasida 1000dan ortiq nomlar qayd etilgan.

AQSH olimlaridan V.Takston nashr qilgan asarlarida manbalarni tahlil qilib madaniy hayotni ochib bergan. Temuriylar diplomatiyasi, xususan Xitoy bilan olib borilgan aloqalar bo‘yicha ko‘plab olimlar tadqiqot olib borgan. Bu borada belgiyalik olim X.Sevus, amerikalik olimlar G.Gudrich, M.Rossabi, yapon olimi K.Yenoki va ingliz olimi F.Xekerlarning faoliyati keng ko‘lamli hisoblanadi. X.Ilgar, J.E.Gross va D.Deviz lar asosan diniy yo‘nalishda izlanishlar olib borib islom dinining davlat boshqaruvidagi ahamiyatini, sufiylik tariqatini ochib bergan. G‘arb olimlaridan K.E.Bosvort o‘z izlanishlarida temuriy shahzodalar faoliyatini tadqiq etib, madaniy-ma‘rifiy jarayonlarga ham to‘xtalib o‘tgan. B.Mans asarlarida temuriylarning madaniyat va diniy sohadagi ishlari kengroq o‘rganilgan. Mariya Yeva Sabteln ham madaniy aloqalar to‘g‘risida qimmatli izlanishlar olib borgan. Unda diplomatik munosabatlar haqida ham fikr-mulohazalar topish mumkin. Hind olimlaridan N.K.Singx va A.Ch.Banerdjilar Hindiston tarixini yozish asnosida o‘rta asrlarda temuriylar bilan bo‘lgan diplomatik aloqalar xususida ham tadqiqot olib borgan. Temuriylarning Hindistondagi hukmdorlar bilan bo‘lgan aloqalarini o‘rganishda qimmatli ma‘lumotlar olish mumkin. Shuningdek, hind olimlarida Ulug‘bek maktabi, undagi aniq fanlar rivojiga bo‘lgan qiziqish ham yuqori bo‘lgan. Muhammad Akbarning “Ziji Ko‘ragoniyni” hind tiliga tarjima qilishi asarni mashhur qilib yuboradi.

Ulug‘bekning aniq fanlar rivojiga qo‘shgan hissasini yuksak e‘tirof etgan yana bir hind olimi Mansura Xaydar bo‘lib, u o‘z izlanishlarida Ulug‘bek maktabini chuqur tahlil qilgan. Mirzo Ulug‘bekning Astronomiya maktabini o‘rganish yapon olimlarida ham katta qiziqish uyg‘otgan. Yoichi Isaxaya, Suko Nakamura va boshqalar shular jumlasidandir. Usmonli turk olimlarining temuriylar davri tarixini o‘rganish bo‘yicha katta tajribalari mavjud bo‘lib, bu borada salmoqli izlanishlar olib borilgan. Bu borada temuriyshunos olim Ismoyil Akaning faoliyati diqqatga sazovordir. U izlanishlarida Amir Temur va temuriy shahzodalar davri ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan bir qatorda tashqi siyosat va diplomatiya, madaniyat, din va ilm-fan masalalariga ham diqqat qaratdi. Temuriylar davri madaniyatiga bag‘ishlangan asar muallifi Xayrunnisa Alan tadqiqotlari ham o‘rganilayotgan davr va sulola faoliyatini yaxshi ochib bergan. Turk olimlaridan Ixsan Foziluglu Ulug‘bek va u yaratgan maktab xususida izlanishlar olib borgan. U o‘z izlanishlarida islom sivilizatsiyaga katta urg‘u beradi.

TADQIQOTNING USULLARI

Tadqiqotda hozirgi zamon tarixshunoslik va manbashunoslik fanida keng qo‘llanilayotgan bir qator metodlardan foydalanildi. Jumladan, manbadagi ma‘lumotlarni davr ko‘zi bilan xolis yoritib berishni nazarda tutadigan tarixiylik metodi (tamoyili)dan foydalanildi. Bu olingan ma‘lumotlarning hozirgi zamon nuqtai nazari asosida sharhlab, noto‘g‘ri xulosalarga kelishni oldini olibgina qolmay, o‘rganilayotgan davr muhitiga tushib olishga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil metodi ham mazkur tadqiqotning asosiy uslublaridan biri bo‘lib xizmat qildi. Zero, tadqiqotga o‘nlab manbalar jalb qilingan bo‘lib, ularda uchraydigan ma‘lumotlarni qiyosiy tahlil

qilish voqea-hodisalarni real ko'rinish kasb etishiga yordam beradi. Elchilik aloqalarining olib borilishi ham madaniy-ma'rifiy jabhadagi ishlar sirasiga kiradi. Shu boisdan ishda diplomatik tahlil metodidan foydalanib, elchilikka oid matnlar, ma'lumotlar tahlil qilindi. Voqea-hodisalarning real natijalarini ko'rsatib berish maqsadida mantiqiy tahlil metodidan ham keng foydalanildi.

NATIJALAR

Amir Temur va temuriylar davri madaniy-ma'rifiy hayotini yoritib beruvchi ko'plab manbalar mavjud. Ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan va o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Shunday manbalardan biri Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asaridir [Ошибка! Источник ссылки не найден.]. Shaxsan Amir Temur buyrug'i bilan yozilgan mazkur asar 1404-yilning bahorigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga olgan. Undan keyingi voqealarni Hofizi Abru ilova tarzida yozgan.

Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari ham temuriylar davri tarixini o'rganish bo'yicha bosh manbalardan biri hisoblanadi. Temuriy mirzolarining e'tiborini o'z bilim va zukkoligi bilan tortgan Ali Yazdiy bir necha yil Shohruh va uning o'g'li, Fors viloyati hukmdori Ibrohim Mirzo saroyida xizmat qilgan. Ma'lumki, Sharafuddin falsafa va diniy bilimlarga ega donishmand inson edi. Uning "Sharaf" taxallusi bilan she'rlar yozgani ham ma'lum. Yozuvchi o'zining "Zafarnoma" tarixiy asarini o'z she'rlari bilan boyitgan.

"Zafarnoma" asari muallif rejasiga ko'ra, uchta bobdan iborat bo'lishi kerak edi. Birinchi bobi Temur, ikkinchi bobi Shohruh Mirzo va uchinchi bobi Shohruh Mirzoning o'g'li, Sharafuddin Ali Yazdiyning homiysi Ibrohim Sulton Mirzoga bag'ishlangan bo'lishi e'tiborga olingan. Zero, mazkur asar temuriy shahzodalar Shohruh va Ibrohim Sulton Mirzolar faoliyati tarixini ham yoritishi kerak bo'lgan. Ammo asarning hozirda fanda ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalarida keyingi ikki bob mavjud emas, taxminlarga ko'ra ular yozilmagan, bizgacha yetib kelmagan yoki hali aniqlanmagan. Asarning bir qancha tarjimalari mavjud bo'lib [2], temuriylar tarixini o'rganishda birlamchi manbalardan biri hisoblanadi.

Garchi, o'rganilayotgan davr va yo'nalish uchun ushbu manbalardan ma'lumotlar olishning imkoni bo'lmasa-da, voqealar izchilligini yoritish uchun qimmatli hisoblanadi.

Alisher Navoiyning temuriylar madaniyati tarixiga oid nodir asari "Majolis un-nafois" hisoblanadi [1] Asar Sulton Husayn Boyqaro davrida turkiy tilda yozilgan. Unda 461 nafar ijodkor insonlar haqida qisqa va ixcham ma'lumot keltirilgan. Ma'lumki, bunday keng qamrovli asar turkiy tilda ilk bor yozilgan. Asarning yettinchi bobida temuriylarning diniy-madaniy qarashlari haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan. Ushbu asarning sakkizinchi bobi temuriylar madaniyati tarixining cho'qqisiga chiqishi uchun homiy bo'lgan Sulton Husayn Boyqaroga atalgan.

Temuriy Mirzo Zahriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" nomli asari [1] avvalo avtobiografiya bo'lib, memuarda uning hayotida kechgan voqealar haqida so'z yuritilgan. Shu bilan birga, unda boshqa temuriy mirzolar, ularning oilalari va atrofida davlat arboblari tilga olingani uchun muhim tarixiy manba hisoblanadi. "Boburnoma" Sulton Husayn Boyqaro davrida yetishib chiqqan shoirlar, olim va san'at arboblarning shaxsiyati va ijodini o'z ichiga olgan tazkira xususiyatiga ega muhim ma'lumotlar to'plami sifatida temuriylar madaniyati tarixining asosiy manbalari qatoriga kiradi.

Temuriylar saltanatida muhim vazifalarga ko'tarilgan shaxslarning tarjimai holi, faoliyati va madaniy hayot haqida ma'lumot beruvchi manbalardan yana biri Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asaridir [1]. Davlatshoh Xuroson yurtlarida yashovchi zodagonlar oilasida tug'ilgan va uning oilasidan ko'plab odamlar temuriylar saltanatida muhim lavozimlarda ishlagan. O'z davrida muhim davlat vazifalarini bajargan deb hisoblangan Davlatshoh Sulton Husayn Boyqaro davrida siyosiy vazifalaridan voz kechib, keng qamrovli asarlar yozish bilan band bo'lgan. Ushbu asarda Temuriylar saltanati madaniyati tarixida faol ishtirok etgan davlat arboblari, olim va ulamolar haqida muhim ma'lumotlar mavjud. Asar

muqaddima, xotima va yetti qismdan iborat bo'lib, so'nggi ikki qismi Amir Temur va temuriylar davrida Markaziy Osiyo, Eron va Iroqda yashagan 41 nafar shoir ijodiga bag'ishlangan. Xotima qismida muallif bilan zamondosh mashhur allomalar Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xoja Afzaliddin Muhammad, Amir Ahmad Suxayliy, Xoja Shahobiddin Abdulloh Marvarid hamda Xoja Osafiy haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe'" [7]nomli xotirasi Husayn Boyqaro davrida mavjud bo'lgan XV asrga oid "She'r majlislari" haqida noyob ma'lumotlar beruvchi va XV-XVI asrda hukmronlik qilgan temuriylar va shayboniylar saltanatining madaniy tarixi haqida ma'lumot beruvchi muhim asardir. Vosifiy taxminan 1485-yilda Hirotda tug'ilib o'sgan deb hisoblansa-da, u bu muhim xotira asarini 1532-yilda Toshkentda tugatgan.

Temuriylar tarixnavisligining bosh manbalarining asosiy qismi ushbu saltanatda hurmatga sazovor bo'lgan mualliflar tomonidan yozilgan bo'lsa-da, Ibn Arabshohning "Ajoyib ul-maqdur" asari [8] Amir Temur davri guvohi bo'lgan va arab tilida yozilgan yagona asardir. Amir Temurning Suriyani egallab olishi natijasida oilasi bilan Samarqandga olib ketilgan Arabshohning o'sha paytda 11 yoshda bo'lganligi ma'lum. Bu holatning salbiy ta'siri bilan u o'z ijodida Amir Temurni zolim, borgan har joyini kuydiruvchi shafqatsiz shaxs sifatida ko'rsatdi. Ammo Temur davridagi allomalar, ulamolar, san'at mutaxassislari e'zozlanganini ham e'tibordan chetda qoldirmagan. Asar xolis bo'lmasa-da, Temurning o'zi homiyligida faoliyat yuritgan ilm-fan mutaxassislari haqida ham muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Temuriylar tarixiga oid asosiy manbalardan yana biri bu "Samarqandga sayohat" [8]asari bo'lib, u Kastiliya qiroli Genrix III tomonidan Temurga yuborilgan elchilik delegatsiyasi orasida bo'lgan Kastiliya saroy palatasi a'zosi Ruy Gonsales de Klavixo tomonidan yozilgan. Bu asarda 1403-1406-yillarda Temur va u bosib olgan mamlakatlarda sodir bo'lgan voqealar tilga olinib, Temur va sulola a'zolari bilan bo'lgan suhbatlar, bu yerda o'tkazilgan bazmlar haqida ham muhim ma'lumotlar berilgan. Ispan tilida yozilgan bu asar turli tillarga tarjima qilingan.

Fasih Ahmad ibn Jaloliddin Xavofiy (1375-1442) "Mujmal Fasihiy" (Fasihiyning qisqa tarixi) asari 1441-yilda forsiy tilda yozilgan qimmatli manba hisoblanadi. Asar muallifi o'z davrining taniqli tarixchilaridan biri bo'lgan va Shohruh Mirzo saltanatida Hirotda tarixnavislik bilan mashg'ul bo'lgan. Asarda dastlab umumiy tarix, so'ngra temuriylar davriga oid muhim voqealar yillar kesimida lo'nda bayon qilingan [10].

Tver shahridan bo'lgan rus savdogari va sayyohi Afanasiy Nikitinning "Хождение за три моря" [11] (Uch dengiz ortiga sayohat) asari ham mazkur davrda yozilgan va o'rganilayotgan davr uchun qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Muallifning Hindistonga bo'lgan safari tafsilotlari bayonidan iborat bo'lgan bu asarda o'sha davr madaniy-ma'rifiy jarayonlari to'g'risida ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan.

Yevropa tillarida yozilgan yana bir manba I.Shiltbergerning. "Путешествие по Европе, Азии и Африке с 1394 года по 1427 год" asari hisoblanadi. Mazkur manbadan ham mavzuga doir ko'plab ma'lumotlarni olishimiz mumkin bo'ladi.

Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" yoki arabchada atalishicha "Matla' as-sa'dayn va majma' al-bahrayn" ("Ikki saodatli yulduzning chiqish va ikki dengizning qo'shilish joyi") asari Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlari xalqlarining XV asrdagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarixini yoritishda O'zbekiston tarixi fani uchun ma'lumotlarga boy qimmatli bosh manba sifatida xizmat qiladi.

Hozirda ma'lum bo'lishicha, dunyodagi Sharq qo'lyozmalari saqlanadigan yirik kutubxonalarning deyarli barchasida "Matlai sa'dayn"ning bir yoki bir necha nusxasi uchraydi [3; 12-24].

Sharq qo'lyozmalari kataloglaridan ma'lum bo'lishicha, asarning ikkinchi jildi qo'lyozmalaridan 20 dan ortig'i dunyo kutubxonalari mavjuddir. Bu qo'lyozma nusxalarning barchasini jamlab tuzilgan forsha tanqidiy matn hozirda mavjud bo'lmasa-da, pokistonlik olim, professor Muhammad Shafening dunyodagi barcha nusxalarni to'plab nashr qilgan kitobi, uning

ilmiy ishlar uchun ishonchli matn bo'lishiga yordam beradi va biz manbashunoslar uchun tanqidiy tomondan foydalanishga imkon beradi.

XULOSA

Davr ilm-ma'rifati, olib borilgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlarini bayon etuvchi yetarli darajada manbalar mavjud. Bunday manbalar sirasiga, temuriylar bevosita homiylik qilib yozdirganlari, mustaqil ravishda yozilganlari, mahalliy va xorijiy, ijobiy va salbiy ma'lumotlar beruvchi manbalar kiradi. Ushbu manbalarning aksar qismi tanqidiy matnlari tayyorlangan, ko'plari o'zbek, rus va dunyoning boshqa tillariga tarjima qilingan. Ulardagi ma'lumotlardan foydalanish ilmiy izlanuvchilarga bir qator yengilliklar beradi. Tanqidiy matn va tarjimaga ketadigan vaqtni tejash imkoniyatini beradigan tarjima ishlarning ahamiyati juda beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shomiy Nizomiddin. Zafarnoma / Fors tilidan o'giruvchi Yu. Hakimjonov. Tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va ma'sul muharrir A. O'rinboyev. Izohlar va lug'atlarni tuzuvchi H. Karamatov. Geografik nomlar izohi O. Bo'riyevniki. Hofizi Abruning "Zafarnoma"ga yozgan "Zayl"i – ("Ilova")ni forsiydan o'giruvchi va izohlarni tuzuvchi O. Bo'riyev. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – 528 b.
2. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asaridan terma-tarjima // Amir Temur ajdodlari. Fors tilidan tarjima, kirish so'z va izohlar muallifi O. Bo'riyev. – Toshkent: Qomus, 1992. – 32 b.; Yazdiy Sharafuddin Ali. Zafarnoma / Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, izoh va ko'rsatkichlar muallifi A. O'rinboyev. – Toshkent: Fan, 1972. – 1270 b.; Yazdiy Sharafuddin Ali. Zafarnoma. (Movarounnahr voqealari. 1360-1370) / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi O. Bo'riyev. Ma'sul muharrir, so'zboshi muallifi va nashrga tayyorlovchi A. O'rinboyev. – Toshkent: Kamalak, 1994. – 290 b.; Yazdiy Sharafuddin Ali. Zafarnoma / Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al- Buxoriy tarjimasi. So'z boshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari A. Ahmad, H. Bobobekov. – Toshkent: Sharq, 1997. – 254 b.
3. Samarqandiy Abdurazzoq. Matlai sa'dayn va majmai baxrayn. II Jild. 1 qism. 1405-1429-yil voqealari // Fors tilidan tarjima, so'zboshi va izohli lug'atlar muallifi A. O'rinboyev. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 632 b.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 13-jild. Majolis un-nafois. - T. : Fan, 1997.
5. Bobur Zaxiriddin Muhammad. Bobirnama. – Toshkent, 1948. – 250 b.
6. Devletşah Semerkandî (1977) Tezkire-i Devletşah, çev. Necati Lugal, İstanbul, s. 11-12.; Semerkandî D. Tezkiretü'ş-şuarâ (Tezkire-i Devletşah) //Thk. Edward Browne. Tahrân: İntişârât-ı Esâtîr. – 1997. – T. 1382.
7. Восифий З. Бадоеъ ул-вақоеъ //Т.: F. Фулом номидаги АСН. – 1979.
8. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) / Tarjima, so'zboshi va izohlar muallifi U. Uvatov. Mas'ul muharrir A. O'rinboyev. – Toshkent: Mehnat, 1992. 1-kitob. – 328 b.; 2-kitob. – 192 b.
9. Клавихо Руи Гонсалес де. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406 гг.) / Перевод со староиспанского, предисловие и комментарии И.С. Мироковой. – М.: Наука, 1990. – 212 с.; Клавихо Руи Гонсалес де. Дневник путешествия ко двору Тимура в Самарканд в1403-1406 гг. / Подлинный текст с переводом и примечаниями, составленными под редакцией И.И. Срезневского. – СПб., 1881. – 457с.
10. Хавафи Фасих Ахмад. Мужмал-и Фасихи / Перевод, предисловие, примечание и указатели Д. Юсуповой. – Ташкент: Фан, 1980. – 346 с.; Фасих Ахмад Хавофий. Мужмали ФасихийТаржима, кириш, изохлар ва кўрсаткичлар Д.Юсупованики. – Тошкент: Фан, 2018. – 544 б.
11. Никитин А.Н. Хожение за три моря Афанасия Никитина, 1466-1472 гг. – Izd-vo Akademii nauk SSSR [Leningradskoe otd-nie], 1958.

12. A descriptive catalogue of the historical manuscripts in the arabic and persian languagus, preserved in the Library of the Royal Asiatic Society of Great Britain and Ireland. By William Morley, London, 1854, pp. 96—99, N XCX.
13. Die arabischen, persischen und turkischen Handschriften d. K. —K. Hofbibliothek zu Wien. . . geordnet und beschrieben von Gustav Flugel. Wien, Vol. 1865, pp. 190—191, NN 968—969.
14. Catalogue of the persian manuscripts in the British Museum. By Charles Rieu. Vol. I, London, 1879, p. 181b—183a.
15. J.Aumer. Die persischen Handschriften der K. Hof—und Staatsbibliothec in Muenchen, Munchen, 1886, pp. 87—88, N 245—246.
16. Catalogue of the Persian, Turkish, Hindustani and Pushtu Manuscripts m the Bodleian Library, begun by Prof. Ed. Sachau. . . completed and edited by H. Ethe, Parti, Persian manuscripts, Oxford, 1889, pp. 91—92, N 163—164.
17. Catalogue of Persian Manuscripts in the Library of the India Office by Hermann Ethe, vol. I, Oxford, 1903, pp. 83—84, NN 193 —195.
18. Concise Descriptive Catalogue of Persian Manuscripts in the Curson Collection of the Asiatic Society of Bengal, by Wladimir Ivanow, Calcutta, 1924, pp. 26—27, NN 81—84.
19. Catalogue des manuscrits Persians de la Bibliotheque Nationale Par E. Blochet, Paris, T. I, 1905; pp. 293—295, N 468 — 470; T. IV, 1934, pp. 258— 259, N 2319.
20. A.A.Семенов. Каталог рукописей исторического отдела Бухарской центральной библиотеки, Ташкент, 1925. стр. 25, № 107.
21. A. descriptive Catalogue of the Oriental Mss. belonging to the late E. G. Browne by E. G. Browne, Completed and edited. . . by R. A. Nicholson. Cambridge, 1932, pp. 109—110.
22. “Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР”, т. I, Ташкент, 1952, стр. 59—60, № 135.
23. “Каталог восточных рукописей Академии наук Таджикской ССР”, т. I, Сталинабад, 1960. стр. 60—62, №№ 47—48.
24. А.А.Тагирджанов, Описание таджикских и персидских рукописей восточного отдела библиотеки ЛГУ, Изд-во Ленинградского Университета, 1962, стр. 126—131, №№ 66—67.
25. О.Ю.Акимушкин, В. В. Кушев, Н. Д. Миклухо-Маклай, М. А. Салахетдинова, Персидские и таджикские рукописи Института народов Азии АН СССР, ч. I, М., 1964, стр. 551—552, №№ 4117—4119.